https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Berdaq nomidagi qoraqalpoq davlat universiteti talabasi

Baxtiyorova O‘g‘iljon Usmon qizi
ogiljonbaxtiyorova44@gmail.com

PIRIMQUL QODIROVNING “YULDUZLI TUNLAR” ASARIDA ONOMASTIK BIRLIKLARNING LINGVOMADANIY TALQINI

Annatotsiya: Ushbu maqolada Pirimqul Qodirov “Yulduzli tunlar” asari misolida o‘zbek tilshunosligining onomastika bo‘limiga doir ba’zi leksik birliklar tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: Nomshunoslik, antroponimlar, toponimlar, zoonimlar, gidronimlar, fitonim, ornitonim, onomastik birlik, lingvokulturologik tahlil.

Annotation: This article analyzes some lexical units related to the onomastics branch of Uzbek linguistics, using Pirimqul Qodirov’s “Stars-filled Nights” as an example.

Keywords: Onomastics, anthroponyms, toponyms, zoononyms, hydronyms, phytonyms, ornitonyms, onomastic unit, linguoculturological analysis.

Аннотация: В данной статье на примере произведения Пиримкула Кодирова *«Звёздные ночи»* рассматриваются некоторые лексические единицы, относящиеся к разделу ономастики узбекского языкознания.

Ключевые слова: Ономастика, антропонимы, топонимы, зоонимы, гидронимы, фитонимы, орнитонимы, ономастическая единица, лингвокультурологический анализ.

“Onomastika” atoqli nomlarni olgan obyektlarning toifalariga ko‘ra quyidagi guruh (bo‘lim)larga ajratadi: antroponim – kishilarning atoqli nomlari

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

(ismlari, familiyalari, ota ismlari, laqablari, taxalluslari), toponim – geografik obyektlarning atoqli nomlari, teonimiya – turli diniy tasavvurlar bo‘yicha xudolar, ma’budlar, diniy-afsonaviy shaxs va mavjudotlarning nomlari, zoonim – hayvonlarga qo‘yiladigan (shartli) atoqli nomlar, laqablar, kosmonim – fazoviy bo‘shliq hududlari, galaktikalar, burjlar va boshqalarning ilmiy muomalada va xalq orasida tarqatgan nomlari, astroponim – ayrim osmon jismlari (planeta va yulduzlar) nomlarining majmuyini o‘zida ifodalaydi. Bundan tashqari, onomastikaning yana bir qancha bo‘lim (guruh)lari mavjud. Masalan, onomastikaning bir bo‘limi realionimlar (avval va hozir mavjud bo‘lgan obyektlarning nomlari) deb nomlansa, unga zid bo‘lgan mifonimlar hayoliy, to‘qima obyektlarning nomlarini bildiradi. Atoqli nomlarning til (lisoniy) xususiyatlarini o‘rganilish darajasiga qarab onomastika adabiy va dialektal onomastika, odatdagi (amaliy) va poetik onomastika, zamonaviy va tarixiy onomastika, nazariy va amaliy onomastika kabi turlarga bo‘linadi.

Nomlar, ularning turlari, nomlanish sabablaribilan shug‘ullanuvchi tilshunoslikning bo‘limiga onomastika lotincha onoma nom so‘zidan olingan deyiladi. Antroponimlarni o‘rgangan olim Ernst Begmatov bo‘lib, “Kishi nomlari imlosi” 1970, “ O‘zbek ismlari imlosi” 1972 kitoblari bu sohadagi qimmatli manba hisoblanadi. 1999-yil nashr etilgan “O‘zbek ismlar” kitobida 14600 ismga izoh berilgan. Atoqli otlar nomlanuvchi obyekt turiga ko‘ra bir necha guruhga bo‘linadi. Shaxs va ularga qo‘yilgan nomlar Antroponimlar.

Antroponimlarga kishilarning ismi, familyasi, taxallusi kiradi. Antroponimlar har doim bosh harf bilan yoziladi, lekin ular orasida kichik harf bilan yoziladigan qismlari mavjud bo‘lib, bular arabcha ibn, binni, o‘zbekcha o‘g‘li, qizi so‘zlari va arab tilidan kirgan so‘zlari. Masalan, Abu Ali ibn Sino, Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybek, al-Xorazmiy, at-Termiziy, Oysha binni Mansur.

Shaxsga qo‘yilgan nomlarda ota-onaning orzu-umidi(Baxtiyor, Umid, Go‘zal) bolaning tashqi belgisi(Xoldor, Xolida, Xolbeka,Anorgul,Qovoqvoy)

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

xalqning urf-odati (O‘roqvoy, Teshavoy) tug‘ilgan kuni (Odina, Jumagul, Jumavoy) o‘z aksini topadi. Antroponimlar turdosh ot asosida (Muhabbat, Lola, Sulton, Bahri) sifat asosida(Go‘zal, Muqaddas, Ozoda, Botir, Jasur) son asosida (Oltmishvoy, Yetmishvoy,) fe’l asosida (Tursunoy, To‘xtasin, Turdi) O‘zbek ismlari qo‘shma so‘zlardan ham iborat bo‘lishi mumkin. Masalan, Sotiboldi, Gulchehra, Otamurod, Gulbahor. O‘zbekcha ismlar tarkibida nomning oxiriga yoki oldiga qo‘shilib keluvchi lug‘aviy unsurlar ham mavjud. Bular bek, boy, bobo, buva, mir, mirza, xo‘ja, qul, beka, bibi, begim, bonu, gul, oyim, poshsha, momo kabilardir. Masalan Qodirbek, Mirzakarimboy, Karim bobo, Ochil buva, Miramar, Aminxo‘ja, Ostonaqul, Kumushbibi, Gulchehrabonu.

"Yulduzli tunlar" asaridagi qahramonlarning nomlari va ularga qisqacha tarif

1.Tohir sevgilisi Robiyani topish maqsadida o‘z hayotini xavfga solib navkar bo‘ladi keyinchali ularning Safarbek degan o‘g‘li bo‘ladi asar oxirida oftobachi lavozimida Boburning vafotigacha yoninda bo‘ladi. (“Yulduzli tunlar” 580-bet)

2.Mula Fazliddin juda istedodli me’mor uch yil Samarqandda, to‘rt yil Hirotda tahsil olgan.Inson suratini chizish man qilingan, tahlikali zamonda Xonzodabegimning iltimosi bilan uni suratini chizgan lekin bu o‘sha davrda shialar ta’sirida chizilgan, bizning pok sunniy mazhabimizga mutlaqo mos kelmaydi deb qaralgan. (“Yulduzli tunlar” 15-bet)

3.Tashkent xoni Muhammad Boburning tog‘asi lekin uni hech qochon qo‘lab- quvvatlamaydi, panoh izlab borganda ham u bilan til biriktirib Shayboniyxon qarshi kurashsam u mendan ham taxtni olib qo‘yadi degan fikrni singdirgan, uning miyyasiga eshik og‘asi, Ahmad Tanbal og‘asi, Telba Sulton. Shayboniyxon Mahmudxonning o‘zini ham, yosh o‘g‘illarini ham ayovsiz qatl ettiradi. Mahmudxonning singlisi Davlat begim Shayboniyxonning o‘g‘li Temur Sulton haramiga uchinchi xotin bo‘ladi. Shayboniyxon o‘zi Mahmudxonning qizi

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Mo‘g‘il xonimni nikohlab oladi. Mahmudxonning suyukli zavjasi Roziya Sulton begim elchi Jonibek Sultonga nikohlab berildi. Oyisha begim ellik besh yoshli Ko‘chkinchixonga nikohlab berildi. (“Yulduzli tunlar” 315 -bet)

4.Samarqand podshosi Sulton Ahmad Mirzoning qizi Oyisha begim Boburning birinchi xotini. Ulardan Faxriniso degan qizi bo‘ladi lekin olti oyligida, ocharchilik paytida, begona ayolni emgani sababli o‘latdan vafot etgan. (“Yulduzli tunlar”288 -bet)

5.Andijon beklaridan Hasan Yoqub mulla Fazliddinga maxfiy tuynukli hammom qurishni buyurdi. Lekin me’mor rad etgan. (“Yulduzli tunlar” 19-bet)

6.Umarshayx Mirzoning birinchi xotini Fotima Sulton va o‘g‘li Johongir Mirzo, ikkinchi xotini Qutlug‘ Nigor xonim qizi Xonzoda begim va o‘g‘li Bobur Mirzo, eng kichik suyukli xotini Qorako‘z begim. (“Yulduzli tunlar” 30-bet)

7.Qutlug‘ Nigor xonimning onasi Eson Davlat begim. (“Yulduzli tunlar” 41-bet)

8.Ahmat Tanbal yog‘iylik maqomida bo‘lgan chagraklar o‘lpon to‘lashdan bosh tortgani uchun 16 ming qo‘ylari, ikki yarim ming yilqilarini jarima sifatida olib kelgan, bunga qarshilik ko‘rsatganlarni boshlarini olib kelgani uchun unga mukofot sifatida qilich beradi. Ahmad Tanbal Xonzoda begim qo‘lini so‘raydi lekin Xonzoda begim rozi bo‘lmadi keyinchalik Shayboniyxon turmushga chiqishga majbur bo‘ladi ukasi Bobur qutqarish maqsadida. Ularning Xurramshoh degan o‘g‘li bo‘ladi tog‘asi Boburga jang payt yordam beraman deb dunyodan o‘tgan. Ahmad Tanbal salbiy qahramon, qo‘li qon, mayxo‘r, mansabparasligi tufayli dunyodan o‘tadi. Andijon egallagach qilich ko‘tarib urushga chiqqan Xonzoda begim bilan Mavlona Fazliddinni qo‘lga oladi Jahongir Mirzo Xonzoda begim qo‘yib yuboradi, me’morni zindonga tashlaydi. Uni qutqargan Tohir bilan Boburning ustozi, mo‘ysafid, shayxulislom, Xo‘ja Abdulla. Bundan xabar topgach Ahmad Tanbal Xo‘ja Abdullo osib o‘ldirishni buyurgan. Amir Temurning qilichga

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

“Rost-rasti”, ya’ni “Kuch—adolatdadir” degan so‘zlar bitilgan. Bu qilish uning avlodlariga meros tarzida o‘tib kelgan. (“Yulduzli tunlar” 112, 114, 174 betlar)

Samarqand taxtiga o‘tirgan Sulton Ali mirzoning onasi Zuhra begim Shayboniyxon xiylasiga tushib o‘g‘lini o‘limiga sababchi bo‘ladi, o‘zi esa xotin yolchimaydigab, Mansur baxshining qiynoqlaridan vafot etadi. Bobur Hirotga Badiuzzamon mirza va Muzaffar mirzalarga taklif etadi birgalashib Shayboniyxon qarshi kurashini lekin ular buni rad etadi. (“Yulduzli tunlar” 246-bet)

Hirotdan Kobulga ketishda Qandahor yo‘li uzoq deb Davon yo‘lini yaxshi deb yo‘l ko‘rsatuvchi deb Sultoni topib keladi. Bobur temuriylardan bo‘lgani sababli Sultonning o‘n yoshlik paytida boshdan kechirgan fojia esiga tushdi. Abusaid mirzo Shohruh vafotidan so‘ng uning odamlarini boshidan judo qiladi bularning orasida Sulton otasi va akasi ham bo‘lganligi sababli Boburni yo‘ldan adashtirishga harakat qiladi keyinchalik yo‘l davomida Boburning qilgan ishlaridan ta’sirlanib Havoli Kutiy g‘orini ko‘rsatadi qordan bekinib, issib olish maqsadida chunki qish chillasi qahrli bo‘lib yo‘l davomida Bobur, Qosimbek va uning o‘g‘illari Tangiberdi va Qambarali qor tepib yo‘l ochishadi. (“Yulduzli tunlar” 383 -bet)

Hirotdan qaytayotganda Bobur Mohim begimni yaxshi ko‘rib qoladi. Keinchalik ularning Humoyun degan farzandni bo‘ladi. Boburning ikkinchi xotini Gulruh begimdan Mirzo Komron va Mirzo Askariy otliq ikki o‘g‘li bo‘ladi. Kichik xotini Dildor og‘achaning qizi Gulbadan va Hindol mirzo. (“Yulduzli tunlar” 500 -bet)

Shayboniyxon Hirotni jangsiz egallaydi chunki Badiuzzamon mirza va Muzaffar Mirzo jang qilishda qo‘rqib qochib ketadilar. Xadicha begimni nabirasi Mo‘min mirzoni o‘limiga sababchi bo‘lgan, oltin gul yasatgan, barglari zumratdan, gulga qo‘yib turgan bulbulning og‘zida gavhari bor. Uni Mansur baxshiga nikohlab beradi. (“Yulduzli tunlar” 363, 402 -betlar)

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Murg‘ob daryosi bo‘yida Shayboniyxon bilan Shoh Ismoil Safaviy bilan jang bo‘ladi. Ismoil g‘alabasi Shayboniyxon o‘limi bilan urush tugaydi. Ismoil Boburning iltimosiga ko‘ra egachisi Xonzoda begim va to‘qqiz yashar o‘g‘li Xurramshohni Balx tog‘idan oshib Qunduzga kuzatib qo‘yishadi. (“Yulduzli tunlar” 422 -bet)

Hindiston rojasi Ibrohim Lodi bilan jang qilib Bobur Hindistonni egallaydi. Ibrohim Lodi onasi Malika Bayda o‘g‘lini qasd olish maqsadida Boburni zaharlaydi. Unga jazo sifatida Bobur bu yerda qilgan ezgu ishlarini ko‘rishi uchun tirik saqlab yomonlika yaxshilik bilan javob qaytaradi. (“Yulduzli tunlar” 535, 592 -betlar)

Toponimlar geografik obyektlar va ularning nomlari. Turli xil obyektlarning muayyan nom bilan atalishi ularning ma’lum belgilari e’tiborga olinadi.Buyuk shaxslarning nomini adabiylashtirish uchun u bilan qandaydir bog‘liq bo‘lgan holat hisobga olinadi yoki shaxsga katta hurmat yuzasidan joy shu shaxs nomi bilan yuritiladi.

“Yulduzli tunlar” asari har jihatdan boy asar hisoblanadi. Ya’ni unda ko’hna tarix chizgilari mohirona aks ettirilgan bo’lsa ham asardagi lingvistik birliklarning qo’llanilishi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Jumaladan, asardagi topinimlar bo‘lmish **“Bog‘i Jahonoro”, “Bog‘i Muxtor”, “Bog‘i Zubayda”, “Bog‘i Chaman”, “Bog‘i Bihisht”, “Bog‘i Safidda”, “Bog‘i Maydon”** kabi onomastik birliklar tarixiy asar qiymatini yanada oshirishga xizmat qilgan. Undan tashaqari asardagi tog‘ nomlari bo’lmish **Pomir, Himolay, Hindikush, Hisor, Muxtor, Iskalja, Chotqol, Oynatog‘, Chilmahram** hozirgi kunda ham saqlanib qolgan.

“Yulduzli tunlar” asaridagi maqbara nomlarini **Ulug‘bek, Bibixonim, Amir Temur, Ahmad Yasaviy, Ixlosiya, Shifoiya, Xolosiya xonaqohi** asarni mutolaa qilish mobaynida uchratishimiz mumkin.undan tashqari biz maqolamizda asardagi

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

sahro nomlariga to'xtalib o'ttik. Ular quyidagilar: **Qoraqum, Qizilqum** bu nomlar hozir ham saqlanib qolgan.

Asarni lingvistik jihatdan tadqiq qilish mobaynida e;tiborimizni tortgan yana bir jihat shuki, ba'zi joy nomlari hozigi kunda yangicha nom olgan. Jumladan, **Xaliliya** hozirgi **G'allorol** yaqinidagi qadimgi qishloq. **Ko'hak** hozirgi Zarafshon daryosi. **Puli Sangin** "Tosh ko'prik" hozirgi **Norak** shahrining yaqinda. **Odinapur** hozirgi Afg'onistonning janubidagi shahar Jalolobod.

Asarda zoonim komponentli birikmalar (hayvon nomlari va ularga atab qo'yilgan nomlar). **To'rtko'z, Bo'ynoq** itlar Chagraklik cho'lponga tegishli ekanligi qayd etiladi.

Xulosa qilib aytganda, Xalqimiz "Ko'l qurisa ham, nomi qurimaydi" degan naql bor. Darhaqiqat, Asardagi ba'zi onomostik birliklar hozirgi kunda yo'qolib ketgan bo'lsa ham ba'zilari aynan shu nom bilan bo'lmasada boshqacha nom bilan saqlanib qolgan. Bundan tashqari hozirgi kunda o'zi qurib, yo'qolib ketgan daryo, ko'l, shaxslarning nomlari hamon saqlanib qolgan. Ularning nomlar hozirda qishloq yoki o'quv dargohlar nomlari sifatida yashab kelmoqda. Asar har jihatdan mukammal yozilgan asar sifatida hali ko'plab tadqiqotlar uchun asos bo'lishi shubhasizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ernst Begmatov. "Kishi nomlari imlosi" 1970
2. Ernst Begmatov. "O'zbek ismlar imlosi" 1972
3. Ernst Begmatov. "O'zbek ismlar" 1999
4. Pirimqul Qodirov. "Yulduzli tunlar" Toshkent. 2024
5. R. Sayfullayeva, M. Abuzalova, N. G'aybullayeva "Tilshunoslik nazariyasi" o'quv qo'llanma. T: .2021